

KASBIY STANDART

Issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'i uzatish uskunalarini ishlatuvchilar va ta'mirlovchilar

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR-kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: ushbu Kasbiy standart "Yoqilg'i uzatish mashinisti", "Qozonxona mashinisti", "Avtomatik yoqilg'i uzatish motorchisi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilashda, malakarni baholash, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish, mehnat vazifalari hamda malaka talablarini belgilash, xodimlarni tanlash, muayyan ish o'rni/lavozimga tayinlash va malakasini oshirishga oid keng ko'lamli vazifalarni hal etishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

yoqilg'i uzatish uskunasi – issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun yoqilg'ini yetkazib beruvchi qurilmalar to'plami.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

IES – Issiqlik elektr stansiyasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'i uzatish uskunalarini ishlatuvchilar va ta'mirlovchilar		
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'i uzatish uskunalarini ishlatish va texnik holatda saqlash, ularni boshqarish hamda uzluksiz, ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash, nosozliklarning oldini olish va belgilangan texnologik hamda xavfsizlik talablariga muvofiq ekspluatatsiya qilish.		
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	D – ceksiyasi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 35 – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 35.1 – Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash 35.11 – Qayta tiklanmaydigan manbalardan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish; 35.11.1 – Issiqlik elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish		
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Issiqlik elektr inshootlari va ishlab chiqarish obyektlarida yoqilg'i uzatish tizimlari hamda issiqlik-texnika qurilmalarini ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, texnologik jarayonlarni nazorat qilish hamda uskunalarining ishonchli ishlashi, samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash		
5.	Kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	31310020	Yoqilg'i uzatish mashinisti	3
		31139001	Issiqlik texnikasi texnigi	5
		31139002	Issiqlik texnikasi ustasi	5
		21513006	Issiqlik texnikasi muhandisi	6

III.Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar			Mehnat funksiyalari	Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
A	31310020 Yoqilg'i uzatish mashinisti	A1.3	Qattiq yoqilg'i uzatish uskunasi boshqarish	A1.01.3	Qattiq yoqilg'ini uzatish uskunasi belgilangan ish rejimini saqlab turish
				A1.02.3	Qattiq yoqilg'ini uzatish uskunasi ishlashi va texnik holatini operativ nazoratini olib borish
		A2.3	Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasi boshqarish	A2.01.3	Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasi belgilangan ish rejimini saqlab turish
				A2.02.3	Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasi ishlashi va texnik holatini operativ nazoratini olib borish
B	31132010 Issiqlik texnikasi texnigi	B1.5	Yoqilg'i uzatish uskunalarini texnik holatini ta'minlash	B1.01.5	Yoqilg'i sexi (uchastkasi) texnik hujjatlarini yuritish
				B1.02.5	Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish
				B1.03.5	Yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlashda qatnashish
D	31139002 Issiqlik texnikasi ustasi	D1.5	Yoqilg'i sexi (uchastkasi)ning ishini boshqarish	D1.01.5	Yoqilg'i sexi (uchastkasi)ning ishini tashkillashtirish
				D1.02.5	Yoqilg'i uzatish uskunalarini ekspluatatsiyasini amalga oshirish
		D2.5	Yoqilg'i sexi (uchastkasi) uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni amalga oshirish	E2.01.5	Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlash
				E2.02.5	Yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlashni ta'minlash
E	21513006 Issiqlik texnikasi muhandisi	E1.6	Yoqilg'i uzatish uskunalarining uzluksiz ishlashini, texnik holatini ta'minlash	E1.01.6	Uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, ishga tushirish va sinovdan o'tkazish jadvalini bajarilishini tashkillashtirish va nazorat qilish

				E1.02.6	Yoqilg'i uzatish sexi (uchastkasi) ishining samaradorligini oshirish choralarini ishlab chiqish
		E2.6	Yoqilg'i uzatish sexiga tegishli texnik hujjatlarni yuritish, saqlash va ishlab chiqish	E2.01.6	Ish jarayonida talab qilinadigan texnik hujjatlar bilan ta'minlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasblar nomi:	Yoqilg'i uzatish mashinisti	
Mashg'ulotlar nomining kodi:	31310	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3-razryad uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur; 4-5-razryad uchun bundan oldingi darajada kamida 6 oy ish staji bo'lishi kerak	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar (talablar): 18 yoshga to'lgan bo'lishi; ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; tegishli yo'nalishda maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lishi; mutaxassisligi bo'yicha kamida 6 oy stajirovka (amaliy ish tajribasi) o'tagan hamda malakaviy komissiya imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi. Ishga munosabati va xulq-atvori (shaxsiy kompetensiyalar): kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; jamoada samarali ishlay olish; kasbiy malakasini va shaxsiy rivojlanishini muntazam takomillashtirib borish; xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-5-malaka razryadli Yoqilg'i uzatish mashinisti	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Issiqlik texnikasi texnigi
	5	Issiqlik texnikasi ustasi
	6	Sex (uchastka) boshlig'i
	6	Sex smena boshlig'i
	6	Muhandis-teplotexnik
	6	Issiqlik texnikasi muhandisi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Qattiq yoqilg'i uzatish uskunasi boshqarish	A1.01.3- Qattiq yoqilg'ini uzatish uskunasi belgilangan ish rejimini saqlab turish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.Yoqilg'i uzatish uskunalarini ekspluatatsiya qilish va ishlashini kuzatish
		2.Yoqilg'i uzatish uskunasi jihozlarining texnik holatini ko'zdan kechirish
		3.Yoqilg'i uzatish uskunalarini o'chirish va ishga tushirish ishlarini bajarish va kuzatib borish
		4.Yoqilg'i uzatish uskunasi ish rejimini issiqlik berish sxemasi bo'yicha olib borish
		5. Xom ko'mir bunkerlarida qattiq yoqilg'i zaxirasini saqlash
		6. Operativ muzokaralarni olib borish
		7. Operativ hujjatlarni saqlash
		8.Ishda qo'llaniladigan asboblari va moslamalarni yaxshi holatda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Smenani qabul qilib olish va topshirish
		Qattiq yoqilg'i ta'minoti uskunasi ishlar rejimini boshqarish
		Yoqilg'i uzatish uskunasi texnik holatini ishga yaroqliligini tekshirish
		Nazorat-o'lchov asboblari ko'rsatkichlari, vizual, eshitish va kinestetik belgilar bo'yicha yoqilg'i uzatish uskunalarining ishlash rejimini tahlil qilish
		Uskunani ishga tushirishga tayyorlash
		Avariya holatini oldini olish
		Shiberlarni, uskunani zaxiradan ishlash holatiga o'tkazish
		Yoqilg'ini xom ko'mir bunkerlariga yuklash
		Qozonxona bunkerlarini yuklashda va yoqilg'ini omborga tushirishda dumperlarni boshqarish, yoqilg'i oqimlarini bir tekisda tarqatib turish
		Ishlab chiqarishda sanoat, portlash, yongin, atrof-muhit xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga amal qilish
		Masofaviy aloqa vositalari yordamida operativ muzokaralar olib borishda axborotni berish, qabul qilish va rasmiylashtirish
		Operativ hujjatlarni yuritish
		Ishda normativ-huquqiy, texnik va ekspluatatsion hujjatlardan foydalanish
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish

		Bilimlar:
		Mehnat funksiyalarini belgilab beruvchi hujjatlar, lavozim yo'riqnomasi va ishlab chiqarish bo'yicha yo'riqnomalar, mehnat muhofazasi qoidalarini bilish
		Yoqilg'i uzatishning texnologik sxemasi, blokirovka qilish va signalizatsiya tizimlari
		Mehnat faoliyatini tartibga soluvchi idoraviy va tarmoqlararo huquqiy-me'yoriy, mahalliy hujjatlar
		Smenani qabul qilish va topshirish tartibi
		Yoqilg'i uzatish qurilmalarini asosiy va yordamchi uskunalarini ishlash prinsipi va xususiyatlari
		Xizmat ko'rsatiladigan uskunaga o'rnatilgan nazorat-o'lchov asboblarning, signalizatsiya moslamalari, blokirovkalar, avtomatlashtirish va himoya vositalarining vazifasi va ishlash prinsipi
		Uskunalar, quvurlarning hududiy joylashuvi va sxemalari, tarkibiy bo'linmalar o'rtasida uskunalarni bo'linishi
		Yoqilg'i uzatish uskunasi boshqaruv kalitlarining joylashuvi, ulardan foydalanish qoidalarini
		Birlamchi yong'in o'chirish uskunalarini, yong'in signalizatsiya va yong'inni o'chirish tizimlari
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlanayotgan qismini ishlayotgan mashina va mexanizmlardan o'chirish qoidalarini
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini normal ish paytida va buzilganida ishga tushirish, to'xtatish va sinovdan o'tkazish tartibi
		Rejimlarni tartibga solish va yoqib-o'chirishlarning texnologik sxemalar, issiqlik mexanika uskunalarini ishlatish qoidalarini
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini masofadan boshqarish va ishlash tartibi
		Yoqilg'i turlari va markalari, ularni transportirovka qilish xususiyatlari
		Ishlatilayotgan yoqilg'ining va uning yonish mahsulotlarining xususiyatlari
		Mehnat muhofazasi qoidalarini
		Shaxsiy himoya vositalarini qo'llash qoidalarini
		Mehnat harakatlari:
		1. Yoqilg'i uzatish uskunalarini ishini muntazam kuzatib turish
		2. Masofadan o'lchash vositalarining ko'rsatkichlarini nazorat qilish

	A1.02.3- Qattiq yoqilg'ini uzatish uskunasi ishlashi va texnik holatini operativ nazoratini olib borish	3.Yoqilg'i uzatish uskunasi ish rejimida nazorat-o'lchov vositalari ko'rsatkichlarini belgilangan me'yordan og'ish holatlarini tahlil qilish
		4.Yoqilg'i uzatish uskunasi ishlash paytida yuzaga keladigan tovush, tebranish, to'xtab qolish holatlarini aniqlash
		5.Yoqilg'i uzatish uskunasi ishida yuzaga keladigan nosozliklarni aniqlash
		6.Yoqilg'i uzatish uskunalarining tarkibiy qismlari va mexanizmlarining oddiy nosozliklarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish
		7.Yoqilg'i uzatish uskunasi qismlarida yedirilish, eskirish, ulanishlardagi zichlikni bo'shab qolish holatlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish
		8.Uskunalar, yoqilg'i ta'minoti mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish
		9.Uskuna mexanizmlarini tozalash va moylash ishlarini bajarish
		10.Qattiq yoqilg'i uzatish uskunasining ishida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va normal rejimni tiklash
		11.Texnik zarurat yuzaga kelganida operativ rahbar boshchiligida uskunani to'xtatish
		12.Operativ jurnalga yozuvlarni kiritib borish
		Ko'nikmalar:
		Yoqilg'i uzatish uskunasining ishlashini tekshirish natijalari bo'yicha nosozliklarni aniqlash
		Yoqilg'i uzatish uskunasining optimal ish rejimidan og'ishlarni aniqlash
		Nazorat-o'lchov vositalari ko'rsatkichlari tahlil qilish
		Yoqilg'i uzatish uskunasini optimal ish rejimidan og'ishlarni tashxislash (taqillash, qirilish, uskunaning ishlash ovozining o'zgarishi, tebranish)
		Yoqilg'i uzatish uskunasini ishlashidagi nosozliklar sabablarini aniqlash
		Yoqilg'i uzatish uskunasi qismlarini yig'ish va demontaj qilish
		Yoqilg'i uzatish uskunasi qismlarini buzilgan va eskirgan qismlarini almashtirish
		Qattiq yoqilg'isini uzatish mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish, uskunani qismlarini tozalash va moylash
		Ish jarayonida sanoat xavfsizligi, portlash xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, atrof-muhit xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish

		Nosozliklarni bartaraf etish va tiklash choralarini ko'rish, oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish, favqulodda vaziyatlar, avariya holatini yoki yong'inni oldini olish choralarini ko'rish
		Ommaviy va shaxsiy himoya vositalardan foydalanish
		Bilimlar:
		Eskirish turlari va eskirgan qismlarni tiklash usullari
		Yoqilg'i uzatish uskunasini ishga tushirish va ishlashi paytida yuzaga keladigan nosozliklar turlari
		Uskunaning ishlashini baholash va nuqsonlarni aniqlash uchun ishlatiladigan nazorat-o'lchov asboblari va jihozlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish
		Yoqilg'i ta'minoti uskunalarning asosiy turlari (nasoslar, klapanlar, filtrlar, yonilg'i baklari).
		Qozonxonalar va yonilg'i tizimlarining ishlashi va joylashishi prinsipi
		Yoqilg'i uzatishning texnologik sxemasi
		Yoqilg'ining fizik-kimyoviy xususiyatlari, saqlash va tashish qoidalari
		Yoqilg'i sifatiga qo'yiladigan talablar va qozonning ishlashiga ta'siri
		Yoqilg'i uzatish uskunasini ishlatish qoidalari
		Yoqilg'i va uskuna bilan ishlashda texnika xavfsizligi talablari
		Yoqilg'i uzatish uskunasini ishga tushirish, sozlash va to'xtatish prinsipi
		Yoqilg'i uzatish uskunasi ishlash parametrlarini nazorati (bosim, temperatura, yoqilg'ini sarfi)
		Grafikka muvofiq ko'zdan kechirish va oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish
		Yoqilg'i uzatish tizimidagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish
	Mas'uliyat va mustaqillik	1.O'ziga birlashtirilgan uskunar uchun javobgar; 2.Yuqori lavozimdagi tajribali xodim nazorati ostida ishlash; 3.O'z mehnat vazifalarini mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq bajarish; 4.Ichki tartib qoidalarga rioya qilish
A2.3- Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasini boshqarish	A2.01.3 — Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasining belgilangan ish rejimini saqlab turish	Mehnat harakatlari:
		1. Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasini ishga tushirish, to'xtatishni amalga oshirish va nazorat qilish
		2. Belgilangan bosim va haroratni saqlash
		3. Mazut zaxirasi baklarida mazut haroratini belgilangan me'yorda saqlash

		4. Suyuq yoqilg'i uzatish uskunalarida o'chirib-yoqishlarni bajarish
		5. Operativ muzokaralar olib borish
		6. Operativ hujjatlarni yuritish
		Ko'nikmalar:
		Smenani qabul qilish va topshirish tartibi
		Yoqilg'ini uzluksiz uzatilishini ta'minlash, uskunani ish rejimini saqlab turish
		Ish jarayonida sanoat, portlash, yong'in, atrof-muhit xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish
		Nazorat-o'lchov asboblari ko'rsatkichlari, eshitish va kinestetik belgilar asosida, yoqilg'i uzatish uskunasi ishlashini tahlil qilish
		Yoqilg'ilarni turlari va xususiyatlari
		Yoqilg'i uzatish uskunalari ishi bo'yicha hisobot va texnik hujjatlarni yuritish qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Yoqilg'i uzatish uskunasi, texnik xususiyatlarni, yoqilg'i ta'minoti sxemalari, bloklash va signalizatsiya tizimlari
		Yoqilg'ining turlari, yonish xossalari va xususiyatlari
		Yoqilg'i uzatish uskunasi texnik holatini saqlab turish uchun bajariladigan ishlarning tarkibi va ketma-ketligi
		Yoqilg'i uzatishning texnologik sxemasi, uni blokirovka qilish va signalizatsiya tizimi
		Yoqilg'i uzatish uskunasi ish rejimini ushlab turish usullari
		Yoqilg'i uzatish uskunasi ishlash texnologik rejimi parametrlari
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini xususiyatlari, normal va favqulodda vaziyatlarda ishlatish qoidalari
		Yoqilg'i uzatish asosiy va yordamchi uskunalarini ishlatish prinsipi va asosiy hamda texnik xususiyatlari
		Uskunalar, quvurlarning hududiy joylashuvi va sxemalari, tarkibiy bo'linmalar o'rtasida uskunalarini taqsimlanishi
		Boshqaruv kalitlari va ulardan foydalanish qoidalari
		Shaxsiy va ommaviy himoya vositalaridan foydalanish
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini ishlatish bo'yicha hisobot va texnik hujjatlarni yuritish qoidalari
		Operativ jurnalga yozuvlarni kiritish tartibi

	A2.02.3 - Suyuq yoqilg'i uzatish uskunasi ishlashi va texnik holatini operativ nazoratini olib borish	Mehnat harakatlari:
		1.Uskunaning ishlashini ko'zdan kechirib, uni texnik holatini tekshirib turish
		2.Ishlayotgan uskunalarni zaxiradagi o'tishni amalga oshirish
		3.Yoqilg'i bilan barqaror ta'minlash uchun uskunani sozlash
		4.Uskunaning ishlash ko'rsatkichlarida og'ishlarni aniqlab, zudlik bilan ularni to'g'rilash choralari ko'rish
		5.Mexanizmlarni muntazam tozalash, oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish
		6.Uskunani rejalashtirilgan profilaktik xizmat ko'rsatish uchun tayyorlash va ularda ishtirok etish
		7.Operativ ma'lumotlarni texnologik jarayonning boshqa ishtirokchilariga yetkazish
		8.Operativ jurnalga yozuvlarni kiritib borish
		Ko'nikmalar:
		Mexanizmlar (konveyerlar, nasoslar, maydalagichlar, to'siqlar va boshqalar)ni ishlashini ko'zdan kechirib va instrumental tekshirish
		Yoqilg'i uzatish uskunasi jihozlarini tozalash, oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish, ta'mirlash ishlarida qatnashish
		Asboblarni va moslamalar bilan ishlash, ularning yaroqliligini tekshirish
		Baxtsiz hodisalar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ishtirok etish
		Sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etish
		Qozon uskunalarini mashinistlari, dispetcherlar va texnik va operativ xodimlar bilan muloqot olib borish
		Bosim, harorat, yoqilg'i sarfi, favqulodda holatlarda bajariladigan harakatlar ketma-ketligini bilish
		Operativ jurnalni yuritish.
		Aktlar, hisobotlarni tuzish
		Oddiy chilangarlik ishlarini bajara olish
		Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va sozlash uchun universal va maxsus vositalarni ishlatish
		Ish joyining holatini mehnat xavfsizligi, yong'in, sanoat va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq saqlash
		Nazorat-o'lchash asboblari ko'rsatkichlarini uskunalarining tartibga solinadigan parametrlari bilan solishtirish

		Yoqilg'i uzatish uskunasini ishlashidagi nosozliklar sabablarini aniqlash Yoqilg'i uzatish uskunasi qismlarini yig'ish va demontaj qilish Yoqilg'i uzatish uskunasi qismlarining buzilgan va eskirgan qismlarini almashtirish Bilimlar: Ta'mirlash ishlari paytida yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlashga tayyorlash Yoqilg'i uzatish uskunalarini va jihozlari texnik ko'rikdan o'tkazish va rejali profilaktik ta'mirlash paytida bajariladigan ishlar ro'yxati Yoqilg'i uzatish uskunasi texnik tuzilmasi Uskunaning mexanizmlari va jihozlari texnik holatini diagnostika qilish usullari Avariya holatlarini oldini olish Ishlab chiqarish, sanoat va yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik normalari va talablari Uskunaga texnik xizmat qilishda, sozlashda foydalaniladigan jihozlari, asboblari, moslamalar va yordamchi materiallar Yoqilg'i uzatish tizimidagi texnologik sxemalar Yoqilg'i turlari, sifati, yonish xossalari Yoqilg'i uzatish uskunasi jihozlari texnik vazifasi Yoqilg'i uskunasi sozlashda talab etiladigan oddiy chilangarlik ishlari Mehnat funksiyalarini belgilab beruvchi hujjatlar, lavozim yo'riqnomasi va ishlab chiqarish bo'yicha yo'riqnomalar, mehnat muhofazasi qoidalari Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish Shaxsiy hamda ommaviy himoya vositalaridan foydalanish
	Mas'uliyat va mustaqillik	1.O'ziga birlashtirilgan uskunalar uchun javobgar; 2.Yuqori lavozimdagi tajribali xodim nazorati ostida ishlash; 3.O'z mehnat vazifalarini mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq bajarish; 4.Ichki tartib qoidalarga rioya qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		Yoqilg'i uzatish uskunalarini: tasmali konveyerlar, qabul va oraliq bunkerlar, tushirish lotoklari/yo'naltirgichlar; Ish joyi boshqaruvi: lokal pult/tugmalar, "Ishga tushirish-to'xtatish", avariya to'xtatish tugmasi, signalizatsiya; xavfsizlik muhofazalari: qopqoq va to'siqlar, blokirovkalar (mavjud bo'lsa), ogohlantiruvchi belgilar;

	nazorat-o'lchov vositalari: ampermetr/ voltmeter yoki multimeter, texnologik ko'rsatkich indikatorlari; (mavjud bo'lsa) tezlik/siljish/tiqilish datchiklari. texnik xizmat uchun: moylash vositalari, oddiy qo'l asboblari (kalitlar to'plami, otvertka va h.k.), tozalash anjomlari. Shaxsiy himoya vositalari: kaska, ko'zoynak, qo'lqop, respirator, quloqchin.
--	---

Kasblar nomi:	Issiqlik texnikasi texnigi	
Mashg'ulotlar nomining kodi:	31139	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Issiqlik uskunalarini ekspluatatsiyasi yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lsa – ushbu yo'nalish bo'yicha kamida 3 oy ish staji; Boshqa yo'nalishdagi texnik mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lsa – Issiqlik uskunalarini ekspluatatsiyasi sohasida kamida 6 oy ish staji; O'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lsa – Issiqlik uskunalarini ekspluatatsiyasi sohasida kamida 3 yil ish staji.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar (talablar): 18 yoshga to'lgan bo'lishi; ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus yoki oliy ma'lumotga ega bo'lishi; mutaxassisligi bo'yicha kamida 3 oy stajirovka (amaliy ish tajribasi) o'tagan hamda malakaviy komissiya imtixonidan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi. Ishga munosabati va xulq-atvori (shaxsiy kompetensiyalar): kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; ishlab chiqarish maqsadlariga erishish uchun o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish; ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlarda faol ishtirok etish; jamo'a bilan ishlash va zarur hollarda jamoani boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish; mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Yoqilg'i uzatish mashinisti
	6	Sex (uchastka) boshlig'i
	6	Sex smena boshlig'i

	6	Muhandis-teplotexnik
	6	Issiqlik texnikasi muhandisi
	7	Bosh muhandis o'rinbosari
	7	Bosh muhandis
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5- Yoqilg'i uzatish uskunalarini texnik holatini ta'minlash	B1.01.5- Yoqilg'i uzatish sexi (uchastkasi) texnik hujjatlarini yuritish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.Mehnat va moddiy resurslardan tejamli foydalanishini nazorat qilish
		2.Yoqilg'i sarfini belgilangan me'yorga muvofiqlikligini nazorat qilish
		3.Yoqilg'iga bo'lgan talab va xarajatlar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish
		4.Yoqilg'i sarfi bo'yicha hisobotni shakllantirish
		5.Rejalashtirilgan vazifalar va loyihalarning bajarilishini kuzatish va ularning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash
		6.Texnologik jarayon ketma-ketligini to'g'ri olib borilishini kuzatib borish
		7.Xarajatlarni minimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritish
		Ko'nikmalar:
		Asbob-uskunalar olishga talabnomalar tuzish
		Tezkor-texnik hujjatlarni yurita olish, hisobotlarni tuzish
		O'z lavozim vakolati doirasida vaziyat talab qilganida zudlik bilan qaror qabul qilish va amalga oshirish
		Ishlab chiqarishda jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish
		Ish joylarini to'g'ri tashkil qilish va yorug'likni ta'minlash
		Ish joylarini texnik ta'minlanganligini tashkillashtirish
		Bilimlar:
		Ekspluatatsiya va texnika xavfsizligi qoidalari
		Elektr qurilmalarni tuzilishi
		Texnik va operativ hujjatlarni yuritilish tartibi
		Mehnat faoliyatini tartibga soluvchi mehnat xavfsizligi, sanoat va yong'in xavfsizligi, sanoat sanitariyasi va yong'indan himoya qilish talablari
		Birinchi yordam ko'rsatish holatlari ro'yxati
		Birinchi yordam ko'rsatish choralari

	B1.02.5- Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari:
		1.Yoqilg'i uzatish uskunalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish, oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish
		2.Yoqilg'i uzatish tizimida yuzaga keladigan nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
		3.Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlar va materiallar zaxirasi hisobini yuritish
		4. Elektromexanik tizimlarni ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik yordam va maslahatlar berish
		5.Texnologik ketma-ketlikni, ishlar bajarish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish
		6.Biriktirilgan uskunalarini texnik holatini kuzatib borish
		7.Bekor turib qolishlar, buzilishlar va avariya holatlarini oldini olish choralarini ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Ish joylarini texnik ta'minlash
		Chizmalar, sxemalar va texnik ko'rsatmalarni o'qish
		Uskunalarini ish holatini kuzatish
		Nazorat-o'lchov vositalarining ko'rsatmalariga muvofiq uskunaning texnik holatini aniqlash
		Texnik xizmat ko'rsatish muddatlarini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish
		Mavjud standartlarni, texnik shartlarni va uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa qoidalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish va o'zgartirish
		Texnik hujjatlarni yuritish va saqlash
		Bilimlar:
		Standartlar, texnik shartlar, sifat ko'rsatkichlari standartlari, texnologik ko'rsatmalar, tashkilotda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish tizimlari, vositalari va usullari
	Ichki mehnat qoidalari	
	Ekspluatatsiya va texnika xavfsizligi qoidalari	
	Elektr uskunalarini tuzilishi	
	Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari	
B1.03.5- Yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlashda qatnashish	Mehnat harakatlari:	
	1. Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish sifati va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarish	

		2.Uskunalar, boshqaruv tizimlari, qulflar va himoya vositalarini sinovdan va profilaktika tekshiruvlar o'tkazish
		3.Uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish sifati va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni shakllari va usullarini takomillashtirish maqsadida, uskunalarni tezkor boshqarish bo'yicha instruktaj o'tkazishni tashkillashtirish
		4.Ta'mirlash ishlarini olib borishda yoqilg'i sexi va ta'mirlash sexi ishlarini muvofiqlashtirish, shu jumladan vazifalarni belgilash va ularning bajarilishini nazorat qilish.
		5.Uskunalarining to'xtab qolishi va nosozliklarining sabablarini, yong'in, avariya holatlari to'g'risida ma'lumot berish
		6.Kompressor uskunasi murakkab qismlari, mexanizmlari va jihozlarning texnik holatini diagnostika qilish
		7. Ta'mirlash ishlarida ishtirok etish
		8. Xavfsiz ish sharoitini yaratish
		9.Ta'mirlangan uskunalarni ishga tushirish va sinovlar o'tkazishda qatnashish
		Ko'nikmalar:
		Nazorat-o'lchov vositalarining ko'rsatkichlarini tahlil qilishi
		Uskunalarining ishlashidagi nosozliklarni aniqlash
		Uskunaning to'g'ri ishlash rejimini tiklash
		Uskunaning avariya holatini oldini olish
		Ish rejimini tekshirish, uskunaning shikastlanishini va nuqsonlarini aniqlash
		Bilimlar:
		Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish rejimlari
